



**SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARI**  
**TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDA MUHIM OMILLARNI ANIQLASH**  
**VA ULARNI TASNIFLASH**

*Qarshi Davlat Texnika universiteti*

*“Ekonometrika va statistika”*

*ixtisosligi tayanch doktoranti*

*Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlari taraqqiyotini ta'minlashda muhim omillarni aniqlash va ularni tasniflash yoritilib berilgan. Sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarini rivojlantirishda iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy va ekologik omillar muhim ahamiyatga eganligi ko'rib chiqildi. Ushbu omillarni tizimli ravishda baholash va tasniflash, investitsiya jarayonlarini yanada samarali boshqarishga yordam berishi o'r ganildi.

**Tayanch so'z va iboralar:** investitsiya, iqtisodiy omillar, moliyaviy omillar, modernizatsiya, texnik baza

**Kirish.** Sanoat korxonalari iqtisodiy rivojlanishning asosi bo'lib, ular mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlarini va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'yndaydi. Shu bilan birga, sanoat sektori rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda investitsiyalarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Investitsiya jarayonlari sanoat korxonalari taraqqiyotini ta'minlashda, xususan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlari taraqqiyotini ta'minlashda muhim omillarni aniqlash va ularni tasniflash maqsad qilingan.

**Material va metodlar.** Ma'lumotlar tahlili uchun turli manbalardan foydalanildi. Bular orasida sanoat korxonalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar, davlat statistikasi, hamda soha mutaxassislarining fikr-



mulohzalari mavjud. Tadqiqot metodlari sifatida ma'lumotlar yig'ish, anketalar, intervular, va statistik tahlil metodlari qo'llanildi. Shuningdek, investitsiya jarayonlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tasniflanib, ularning o'zaro aloqlari o'rGANildi.

**Natijalar.** Investitsiya jarayonlarini rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillarni quyidagi toifalarda tasniflash mumkin:

**Iqtisodiy omillar**

- Bozor sharoitlari, davlat siyosati, soliq siyosati, iqtisodiy barqarorlik

**Moliyaviy omillar**

- Moliyaviy resurslar, qarz olish imkoniyatlari, xalqaro moliyaviy resurslar

**Texnologik omillar**

- Innovatsion texnologiyalar, texnik baza, modernizatsiya, texnologik yangilanishlar

**Ijtimoiy omillar**

- Mehnat resurslari, ishchi kuchining malakasi, mahalliy hamjamiyat bilan aloqlar

**Ekologik omillar**

- Atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish

**1-rasm.** Investitsiya jarayonlarini rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillar<sup>1</sup>

**1.Iqtisodiy omillar**

**Bozor sharoitlari:** Sanoat korxonalarida investitsiyalarning samarali bo'lishi, asosan, bozor talabiga, ishlab chiqarish imkoniyatlari va tovarlar eksportiga bog'liq. Sanoat korxonasining bozordagi o'rni va raqobatbardoshligi investitsiyalarni jalg qilishda muhim ahamiyatga ega.

**Davlat siyosati:** Investitsiyalarning rivojlanishiga davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy sharoitlar, soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar ta'sir qiladi. Davlatning sanoatga bo'lgan siyosati investitsiyalarning o'sishiga yoki pasayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**2.Moliyaviy omillar**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



**Moliyaviy resurslar:** Korxonalar o‘zlarining moliyaviy holati, shu jumladan, qarz olish imkoniyatlari, investitsion mablag‘larga ega bo‘lishi investitsiya jarayonlariga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarni ajratish va boshqarish, korxonaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Xalqaro moliyaviy resurslar:** Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan yoki xorijiy investorlardan mablag‘ olish, korxonaning yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim resurslarni taqdim etadi.

### 3.Texnologik omillar

**Innovatsion texnologiyalar:** Texnologik yangilanishlar va innovatsion echimlar sanoat korxonasining samaradorligini oshiradi. Yangi texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar o‘z mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va eksport bozorlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Texnik baza:** Modernizatsiya va texnik baza yangilanishi investitsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli bo‘lishiga imkon yaratadi. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va samaradorligini yaxshilash uchun texnik yangilanishlar muhimdir.

### 4.Ijtimoiy omillar

**Mehnat resurslari:** Malakali ishchi kuchi va uning rivojlanishi sanoat korxonasining o‘sishi uchun zarur omildir. Ishchilarning malakasi va ularning ishlab chiqarishga ta’siri korxonaning samarali ishlashiga bevosita ta’sir qiladi.

**Mahalliy hamjamiyat bilan aloqalar:** Mahalliy jamoat va hududiy rivojlanish ham sanoat korxonalarining investitsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Hududiy rivojlanish dasturlari va mahalliy jamoatning qo‘llab-quvvatlashi investitsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

### 5.Ekologik omillar

**Atrof-muhitni muhofaza qilish:** Sanoat korxonalari atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadigan faoliyatlarni amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun ekologik barqarorlik va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish investitsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi.



Investitsiya jarayonlarini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, iqtisodiy barqarorlik bo'lmasa, texnologik yangilanishlarga sarmoya jalb qilish qiyinlashadi. Shuningdek, davlatning qo'llab-quvvatlashi orqali texnologik va moliyaviy resurslar ta'minlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunday omillar o'zaro hamkorlikda ishlashni talab qiladi.

**Xulosa.** Sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarini rivojlantirishda iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy va ekologik omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillarni tizimli ravishda baholash va tasniflash, investitsiya jarayonlarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi. Bunda davlat siyosatining roli, texnologik yangilanishlar va moliyaviy manbalarni to'g'ri taqsimlash o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy va ekologik jihatlar ham sanoat korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Astanakulov O.T. (2020) Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. –T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati, -16 b.
- 2.Texnologik yangilanish va innovatsiyalarni joriy etish jarayonlari (Toshpulatov, B., 2021)
- 4.Sanoat korxonalari uchun ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish (Xo'jaev, S., 2022)
- 3.Quvatova , G. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH AHAMIYATI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(2), 96–98.
- 4.Quvatova , G. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(2), 110–114.
- 5.Quvatova , G. . (2024). SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK



MODELLASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(7), 92–96.

6.SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH STRATEGIYALARI. (2024). Ta‘limning Zamonaviy Transformatsiyasi, 14(1), 327-335.

7.SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, oktabr, 33-39